

PIRIMQUL QODIROVNING TARIXIY ASARLARIDA JOY NOMLARINING QO‘LLANILISHI

Nazarov Zokir Muxammad o‘g‘li

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi.

Telefon: +998937616566 Email: znazarov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19279305>

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligidagi kam o‘rganilgan muammolardan biri – Pirimqul Qodirovning tarixiy asarlarida joy nomlarining qo‘llanilishi, uning ma‘nosi, tarkibi kelib chiqishi kabi jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

Kalit so‘zlar: Toponim, dialektologiya, vaqf hujjatlari, geografik nomlar, joy nomlari, Bandi Solor.

Toponimika - joy nomlari, ya‘ni toponimlarni o‘rganadigan fan. Toponimika geografik nomlarni to‘plash bilan, ularning kelib chiqishi hamda taraqqiyoti, shakli, mazmuni va grammatik tuzilishini tadqiq qilish bilan ham shug‘ullanadi. Bu jihatdan toponimika tilshunoslik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning ma‘lum bir sohasi sifatida qaraladi. Chunki toponimlarni o‘rganish til tarixi, nazariyasi, dialektologiyasi uchun juda katta ahamiyatga ega.

Joy nomlarini o‘rganishga olimlar qadimdan qiziqib kelishgan. O‘rta Osiyo joy nomlari haqida Mahmud Koshg‘ariy, Narshaxiy, Beruniy kabi allomalarimiz ilk izlanishlarni olib borishib, o‘z asarlarida qimmatli fikrlarni bayon qilgan bo‘lsalar, keyinchalik, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon kabi ijodkorlar bu ishni davom ettirib, bugungi kun toponimikasi uchun qimmatli ma‘lumotlarni qoldirganlar. «Jug‘rofiy nomlar haqidagi fan tilshunoslikning uzviy bir qismi, tilshunoslik jug‘rofiyaning vakili hisoblanadi va jug‘rofiy nomlar bu o‘ziga xos qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi lug‘aviy til tarkibining bir qismidir. Jug‘rofiy nomlar ancha turg‘unlik, barqarorlik xususiyatiga ega, ular uzoq vaqtlar davomida hukm suradi va shuning uchun ularni tarixiy yodgorliklar toifasiga qo‘shish mumkin. Jug‘rofiy nomlar (toponimlar) biror bir jug‘rofiy nuqta va tushunchani bir so‘z yoki so‘z birikmalari bilan to‘la ifodalab beradiki, bu so‘z bilan belgilangan joy boshqa joylar bilan almashib ketmaydi, ya‘ni toponimlar jug‘rofiy nuqtaning aniq belgilangan turar joyi (adresi)dir»¹

Xalqimizda «Ko‘l qurisa ham uning nomi qurimaydi» degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan. Xalq tili, uning tarixi, adabiyoti, madaniyati, san‘ati, urf-odati, ma‘naviyati — umuman olganda, butun borlig‘ini aks ettiradi. Nomlar esa inson tomonidan narsa va hodisalarga qo‘yiladi. Bu nomlar tarixning mahsuli sifatida ming va undan ham ko‘p yillar davomida saqlanib qolaveradi. Inson umri cheklangan, lekin yozma obida, yodgorlik, yozma kitob va xalq og‘zaki ijodi namunalari avloddan avlodga o‘tib etadi. Ana shu manbalarda nomlar saqlanadi.

Tabiatdagi hodisalar, inshootlar, daryo va tepaliklar — umuman joy nomlari asrdan asrga o‘tib kelaveradi. Ayrim holatlarda esa joylarning o‘zlari yo‘qolishi va turli sabablarga ko‘ra tugatilishi mumkin. Lekin tarixda va tarixiy manbalarda ularning nomlari o‘z ifodasini topadi.

¹ Abdullayev O. Namangan viloyati — Toshkent: Fan, 1995. 88-bet.

Pirimqul Qodirovning «Bobur» romani tarixiy mavzuga bag'ishlanganligi sababli unda tarixni realistik tasvirlashda «Boburnoma» asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

«Boburnoma» esa tarixiy-memuar asar bo'lganligi sababli, unda Bobur bosib o'tgan yo'llar, joylar, shaharlar, qishloqlar haqida yetarlicha ma'lumotlar aniq berilgan. Bir so'z bilan aytganda juda katta territoriyaning geografiyasi badiiyat bilan bayon etilgan. Romanda davr toponimik nomlari (XV asr oxiri va XVI asr birinchi yarmi) aynan berilgan bo'lib, nomlarda tarix sahifalari namoyon bo'lganligi uchun ham ularda xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq haqiqat aks etib turadi. Asarda Farg'ona vodiysi, Zarafshon vohasi, Afg'oniston, Tojikiston, Hindiston bilan bog'liq shaharlar, qishloqlar, tepaliklar, tog'lar, qal'alar, ariqlar, ko'llar, soylar, har-xil qurilish va turli inshootlar nomlari keltirilgan. Bu nomlarning aksariyati tarixning guvohi sifatida bugungi kunda ham mavjud bo'lsa, ayrim toponimik nomlar joylarning yo'qolishi, buzilishi bilan ishlatilmay qolgan. Asardagi barcha toponimlar haqida fikr-mulohaza yuritish imkoniyati bo'lmasa-da, ayrimlari haqida to'xtalmoqchimiz.

Romanda Aysi va Aysi qo'rg'oni haqida ma'lumot berilgan. Aysi o'sha paytlar Boburning otasi Umarshayx mirzo saltanatining markazi bo'lib, u yerda Umarshayx mirzo istiqomat qilgan. Aysi qo'rg'oni va uning yonidan oqib o'tgan soy(ariq) tarixda Umarshayxning fojeyali o'limi bilan bog'liq nom sifatida muhrlanib qolgan. Aysi tarixiy manbalarda Axsikat tarzida berilgan va Farg'ona vodiysining qadimiy shahari ekanligi aytilgan. U Mug' tepaligidan topilgan so'g'd hujjatlarida (VIII) u tilga olingan. «Hudud al-alam»da: «Axsikat-Farg'ona poytaxti, amirlar va vazirlar qarorgohi» deyilgan. Axsikat haqida Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy ancha ma'lumot berganlar. Axsikat XVI asrdan so'ng xarob bo'lgan. Hozirda esa shahar xarobalari Eski Aysi deb yuritiladi. Bu joy Namangan viloyati Namangan tumani Aysi qishlog'i yonida. Tarixda bu shaharning nomi boshqacha yuritilgani haqida ham ayrim ma'lumotlar bor. Balazuriy asarida Xshikat shaklida beriladi Axsikat (Xshikat) sug'd tilida «Oq shahar» degan ma'noni beradi. Asarda keltirilgan joy nomlaridan biri Bandi Solor. «Fotima Sulton boshirig'i bilan Andijonga yashirincha jo'nagan Ahmad Tanbal bu orada Sirdaryo ko'prigidan o'tib, Bandi Solor yo'li bilan ancha joyga borib qolgan edi» (27).

Bu nom ham hozirda asarda keltirilgan o'rinda va shu nomda aynan ishlatilmaydi.

Tarixda Samarqand — Andijon yo'lining bir bo'laki sifatida qolgan. Ba'zi manbalarda Bandi Solor Salor shaklida berilgan va Toshkentdagi ariq «bosh qo'mondon» ma'nosidagi sipoh solor so'zidan olingan bo'lsa kerak -degan taxmin ham qiladilar. Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida Ro'dak nomi bilan qayd qilingan.

Buratog'. Bu tog'ning nomi. «Baland qoyatoshlar bilan tekis vohalar bir-biriga g'alati tarzda kirishib ketgan O'sh atroflari bir necha kundan beri juda serharakat. Andijondan tualarga ortib kelingan hashamatli chodirlar Buratog' etagidan oqib o'tadigan Jannatariq bo'yiga o'rnatildi. Oqbo'rasoy bo'ylarida ham CHilmahram tog'ining etaklaridagi ko'kalamzorlarda ham yuzlab chodirlar va o'tovlar paydo bo'ldi» (62). Buratog' ba'zi manbalarda Boratog' deb ham yuritiladi. Bu nom Oq Burasoy kabi asli bura so'zidan olingan bo'lishi kerak. Turkiy tillarda nortuyaning eng kaggasi bura yoki bug'ra deb ataladi. Bu tog' chindan ham tekis joyda cho'kka tushib yotgan ulkan nortuyaga o'xshab ketadi (62). Ayon bo'ladiki, bu tog'ning nomlanishiga geografik obyektning holati, ko'rinishi sabab bo'lgan.

Yoinki Hodarvish cho'lining nomlanishi «Boburnoma»da keltirilgan rivoyatga ko'ra cho'ldagi ma'lum bir voqea-hodisa bilan bog'liq. Ko'ksaroy, Ko'ktosh, Bo'stonsaroy.

Shuning uchun Samarqandning so'nggi tojdorlari Ko'ksaroyda turmas edilar, faqat mashhur Ko'ktosh ustiga chiqib, tantana bilan taxtga o'tirish marosimini o'tkazar edilar.

Bobur ham arkning o'ng tomonida joylashgan Bo'stonsaroyga tushdi (98). Bu nomlar hozirda aynan o'z mohiyat e'tibori bilan qo'llanilmaydi. Ko'ksaroy Amir Temur davrida Ark ichida qurilgan to'rt qavatli xashamatli va ulkan binolardan bo'lgan. Tarixda Ko'ksaroyda juda ko'p fojialar bo'lgan, talay shahzodalar shu yerda o'ldirilgan. Ko'ksaroy, Ko'ktosh, Bo'ston-saroylar Samarqandda bo'lgan. Bu joylar bugunda yo'qolib ketgan. Ularning o'rinida boshqa imoratlar qad ko'targan. Ko'ksaroy o'rnida hozirda «Afrosiyob» mehmonxonasi barpo etilgan. Samarqanddagi bosh maydon Ko'ksaroy nomi bilan yuritiladi.

Ko'rinadiki, tarixiy manbalarda saqlangan joy nomlari davr o'tishi bilan u yoki bu tarzda yana nom sifatida atalishi mumkin. Garchi u dastlabki mohiyatini, aynan aks ettirmasada, romanda esa bu nomlar tarixiy voqealarni aynan, realistik tarzda aks ettirish, berish uchun keltiriladi. Bo'stonsaroy, Ko'ktoshlar tarixda joy nomlari sifatida, asarlarda, lug'atlarda va boshqa manbalarda qayd etilsada, bugungi kunda ular manba jism sifatida yo'q. Saroylar va turli hashamatli inshootlar haqida asarlarda ma'lumot berilganda bundan bir necha yuz yillar avval ham ajdodlarimiz shunday katta koshonalar qurganliklari, sharqona monumental binolar barpo etganliklari va ular o'ziga xos zebu ziynatga ega bo'lganligidan voqif bo'lamiz. Misolga murojaat qilaylik: Oqshom Bo'stonsaroyda qandillar yondirilganda Bobur o'tirgan Xonai xosga No'yon Ko'kaldosh kirib keldi. Zar bilan naqshlangan bu xona hozir juda sovuq edi. (98).

Romandagi toponimik nomlarni o'rganish va ular haqida ilmiy mulohaza yuritishda taqqoslash uchun tarixiy manba «Boburnoma» sanalgani uchun Boburning o'zi sharhlab bergan bir nom haqida fikr bayon qilmoqchimiz. Chunki bu bundan qariyb 500 yil muqaddam aytilgan fikr sifatida diqqatga sazovordir.

Konigil – ba'zi birovlar uni Koni gil, ya'ni forscha «tuproq koni» desalar, ayrimlar, chunonchi, Fazlulloh ibn Ro'zbexon «Mehmonnomai Buxoro» asarida koni gul, ya'ni «gullar koni» deydi. Bobur esa «bu ulangning oti Koni obgir» deb yozgan. (BN, 107). «Bu esa haqiqatga yaqindir,- deydi S. Qorayev. — Chunki Siyob suvining «atrofi tamom obgir», ya'ni botqoq bo'lgan (obgir termini «Boburnoma»da bir necha joyda uchraydi).

Demak, Koniobgir asta — sekin o'zgarib Konigil shaklini olgan»². Nomlarning ma'lum bir zaruriyat, sabab va maqsadlarga ko'ra paydo bo'lishiga diqqatni qaratmoqchimiz. Bu borada geografik muhit, aholining etnik shakllanishi kabi ma'lum bir voqea-hodisalar birlamchidir. Ayniqsa, joy nomlari geografik obyektning tashqi ko'rinishi, joylashish o'rni, tabiiy sharoiti, yer boyligi, hayvonot va o'simlik dunyosi, mahalliy xalqning shug'ullanadigan ishlari, kasb-hunarlarini, xo'jalik yuritishi, biror shaxs yoki qabila, urug' nomiga binoan qo'yilishi mumkin. Agar sabablar ko'p bo'lsa, shulardan eng xarakterlisi tanlab olinadi³.

Roman tilidagi toponimlarni xususiyatlariga ko'ra leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) qabida, urug' nomi bilan bog'liq toponimlar;
- b) kishi ismlari asosida vujudga kelgan toponimlar;
- v) jonivorlar nomi bilan bog'liq toponimlar;
- g) geografik obyekt va relyef xususiyatlarini aks ettiruvchi toponimlar;
- d) ma'lum bir voqea-hodisalar ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan toponimlar.

² Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi.-Toshkent: O'zbekiston, 1978. 18-bet.

³ Karimova L. O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi.-Toshkent: Fan, 1982. 57-bet.

Shuningdek, asarda urugʻ, qabila, tarixiy shaxslar nomi va boshqa munosabatlar bilan nomlanadigan toponimlar ham anchaginadir. SHulardan qabila, urugʻ va kishi nomlari bilan bogʻliq toponimlar haqida ayrim fikrlarni bayon qilamiz. Bu singari toponimlar qadimiy xarakterga egadir. Chunki qadimda yashagan urugʻ yoki qabila nomi vaqt oʻtishi bilan ular yashagan joyga nisbatan atalgan boʻlishi mumkin. Qabila va urugʻ nomi bilan ataladigan joylar, asosan, qishloq va mahallalardir. Baʼzan bir qishloq aholisi bir urugʻga mansub boʻlsa, baʼzan urugʻ nomi bilan ataluvchi joyda shu urugʻ vakillaridan umuman boʻlmasligi ham mumkin. Aholining bir joydan ikkinchi joyga koʻchishi bu holni keltirib chiqaradi. Masalan, Samarqand viloyatiga qarashli Xoʻja qishloq va Qushchi qishloqlarida ayrim begona urugʻ vakillarini hisobga olmaganida, deyarli barcha aholi xoʻja yoki qushchi urugʻiga mansub kishilardir. Lekin Boʻtaboy degan qishloqda boʻta urugʻiga mansub biror shaxs uchramaydi. Vaholanki, tilshunoslar bu qishloqning nomlanishini bir vaqtlar shu hududga kelib yashagan boʻta urugʻi (oʻzbek urugʻlaridan) bilan bogʻlaydilar⁴. Mahalliy aholi esa buni boshqacha talqin etishadi. Ularning aytishicha, ushbu qishloq hududi dastlab butazor va changalzorlardan iborat qarovsiz joy boʻlgan ekan. Birinchi boʻlib bu yerga Boʻtaboy ismli dehqon oʻz oilasi bilan koʻchib keladi va yerga ishlov berib tirikchilik qila boshlaydi. Shundan keyin boshqalar ham koʻchib kela boshlashadi. Qishloq esa oʻsha kishi nomiga koʻra Boʻtaboy deb atalib kelingan. Bu rivoyatga binoan qishloq nomlanishida buta (oʻsimlik) va Boʻtaboy ismli shaxs nomi nazarda tutilgan boʻlsa ajab emas. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, tarixiy romanlar tilida ham urugʻ nomi bilan bogʻliq toponimlar yetarlicha uchraydi. Binobarin, xoʻja urugʻi bilan bogʻliq Xoʻja Katta, Xoʻja Diydor kabi qishloq nomlari, Dashti Qipchoq singari qipchoq urugʻi bilan bogʻliq dasht nomlari shular jumlasidandir.

Chaqaq degan qishloq nomi ham mavjud boʻlib, aslida shahar devorining tashqarisidagi qalʼa. istehkom chaqaq deb atalgan. Shuningdek, chahar degan moʻgʻul urugʻi ham boʻlgan. Moʻgʻulistonda Chahar degan joy ham bor. S.D.Nominxanov Oʻzbekistonda Chaqaq nomli qishloqlardan yettitasini sanab oʻtadi va bu qishloqlar chahar urugʻi nomi bilan atalgan deb taʼkidlaydi. Samarqand shahrida ham Chaqaq degan mahalla boʻlib, u hozirgi Siyob tumaniga qaraydi. Shuningdek, Narpay va Ishtixon tumanlarida ham shu nomdagi qishloq bor. Tarixiy asarlar tilida bu atama «Chaqaq» shaklida qoʻllangan: Uni Andijonning Chaqaqidagi tosh istehkom ichiga, oʻlim jazosini kutadigan mahbuslar hujrasiga qamab, eshigini tashqaridan qulflab oldilar (139).

Urgut toponimining ham argʻu qabilasi bilan bogʻliqligi mavjud. Mahmud Koshgʻariy argʻu — turk qabilasi nomi, deb yozadi⁵. Demak, Argʻut-Argut-Urgut shakliga kelib qolgan, yaʼni argʻu+t=argut; -t qadimgi turkiy va moʻgʻul tillarida koʻplik hosil qiluvchi qoʻshimcha boʻlib, Urgut argʻut — «argʻular» maʼno- sini bildiradi. Bunday toponimlar tarixiy romanlar tilida ozchilikni tashkil etib, bu asar voqealari tasviri davomida toponimlarni berishdagi cheklanganlik oqibatidir. Joy nomlarining hosil boʻlishidagi sabablardan biri maʼlum bir shaxs nom bilan bogʻlanganligidir. Bunda shu hududda yashovchi kishilarning mavqeyi, kasbi, mansabi, qaysi xususiyati bilan tarixda nom qoldirganligi hisobga olinadi. Tarixiy asarlar tilida kishi ismi bilan bogʻliq toponimlar ham katta bir guruhni tashkil qiladi.

Yozuvchi maʼlum bir tarixiy sharoit, davr voqea-hodisalarini hikoya qilar ekan, kishi nomlari bilan bogʻliq toponimlardan ham oʻrinli foydalanishga harakat qiladi.

⁴ Oʻrinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar — Samarqand: Zarafshon DOOZ. 98-bet.

⁵ Koshgʻariy M. Devonu lugʻatit turk. 1-tom,- Toshkent. Fan, 1960. 114-bet.

Qo'llanilgan bunday toponimlar o'sha joyning ma'lum bir tarixiy shaxs bilan aloqador ekanligini ko'rsatib turadi. Ayrim toponimlar esa buyuk sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog'liq. Misol: Buning xabarini Kobulda qolgan sodiq navkarlardan Muhammad Andijoniy Langari Temur degan joyda Boburga yetkazib keldi (332).

Yozuvchi «Boburnoma»ga asoslangan holda o'zi hikoya qilayotgan voqea-hodisaning ishonchliligini ta'minlash maqsadida yuqoridagi nomlardan foydalangan. Keltirilgan nomlar shu joyning nomlanishi bevosita ma'lum bir tarixiy shaxslar faoliyati, hayoti yoki harbiy yurishlari bilan bog'liq ekanligiga ishora qilib turadi. Ayrim toponimlar esa kishi nomi bilan aloqador bo'lsa-da, o'sha shaxs haqida ma'lumot bermaydi. Misol: Nihoyat izg'irinli sovuq kunlarning birida, Shoh Ismoil xonga yana bir maktub yo'llab, uning qo'rg'ondan chiqmaganini qo'rqqoqlik deb atadi, bahorda yana qaytib kelajagini bildirdi, so'ng Marvning garbi-janubidagi Mahmudi degan qishloq tomonga chekina boshladi (356). Tarixiy asarlar tilida qo'llanilgan shaxs nomi bilan bog'liq toponimlarning bir guruhi xalqning diniy e'tiqodi, dunyoqarashi bilan aloqadordir. Islom dini ta'sirida tilimizga kirib kelgan ko'plab leksemalar shaxslar ismiga qo'shilib toponim sifatida o'rnashib qolganligi tarixiy asarlar tilida ham ko'zga tashlanadi. Tarixiy asarlar tilida qo'llanilgan «Shayhantohur», «Xo'ja Katta», «Xo'ja Diydor» kabi toponimlar shular jumlasidandir. Misol: O'qchi mahallasida Toshkentning jahonga mashhur o'q-yoylarini yasagan ustalarga oltin bezakli «Kamoni Shoshiy» buyurtma bergan, Shayhantohurga ko'milgan bobosi Yunusxonning qabrini ziyorat qilgan edi (255). Shayboniyxon yov hujum qilishini kutmas, shuning uchun shaharda besh yuz kishilik qo'shin qoldirib, qal'a tashqarisidagi Xo'ja Diydor degan joyni qarorgoh qilgan edi (212).

Toponimik nomlar etimoni haqida fikr yuritganda, uning lug'aviy ma'nosini izohlash bilan birga, tarixda taqqoslash uchun manba ham zarur bo'ladi. Bu manbalar u yoki bu toponimik nomning qaysi davrda, qanday shaklda ishlatilganligidan guvohlik beradi.

Tarixda nomlar turli davrlarda, aynan, ba'zida fonetik o'zgarishlarga, ayrim holatlarda morfologik yasalishlarga uchragan holatlarda qo'llanishlari mumkin. Tarixiy badiiy asarlarda toponimik nomlar aynan o'sha davr tili mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy asarlardagi toponimik nomlarni to'plash, o'rganish, ular etimoni haqida ma'lumot berish juda katta mashaqqatni talab qiladi. Shu bilan birga, tarixiy mavzularda yaratilgan asarlar o'tmish toponimikasini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. «Bobur» romanida qo'llanilgan toponimik nomlarning aksariyati bugunda aynan o'z nomi bilan atalayotgan bo'lsa, ayrimlari bugunda ishlatilmaydi yoki nomlari o'zgartirilgan turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili. (leksikologiya). O'quv qo'llanma / – T.: “Firdavs-shoh nashriyoti”, 2021. –380 b.
2. P. Qodirov Yulduzli tunlar / roman / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navro'z”, 2019. – 576-b.
3. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi, Toshkent – 2007-yil.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, Toshkent – 1989-yil.
5. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi.-Toshkent: O'zbekiston, 1978. 18-bet.
6. Karimova L. O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi.-Toshkent: Fan, 1982. 57-bet.
7. O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar — Samarqand: Zarafshon DOOZ. 98-bet.
8. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. 1-tom,- Toshkent. Fan, 1960. 114-bet.